

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI JAMIYATNI RIVOJLANTIRISHDAGI ISLOHOTLAR STRATEGIYASI

Teshayeva Gulchehra Murodovna

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti assistenti

Annotatsiya:

Mamlakatimizda inson omilini rivojlantirish, inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan islohotlar davlat siyosati darajasida ko'tarilib, ko'lami va qamrovi jihatdan keng ahamiyat kasb etib bormoqda. «Raqamli jamiyat», «raqamli hukumat», «raqamli boshqaruv», «raqamli munosabatlar» kabi tushunchalar kundan-kunga hayotimizdan o'rin egallab bormoqda.

Ushbu maqolada jamiyatimizda olib borilayotgan ushbu sohadagi islohotlarning mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli jamiyat, pandemiya, raqamlashtirish, raqamli hukumat, raqamli boshqaruv, masofaviy o'qitish platformalari

Rivojlanish yo'lidagi hamda xalqaro maydonda mavjud bo'lishni istagan har qanday mamlakat istaydimi yo'qmi ushbu yo'ldan o'tishi hamda raqamlashtirish jarayonlarida faol bo'lishi talab etilmoqda. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda raqamlashtirish – dunyo tendensiyasiga javob bermoqchi bo'lgan har qanday mamlakat uchun bosib o'tishi shart bo'lgan yagona yo'lga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. 2020 yildan butun dunyo iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan pandemiya holati ham raqamlashtirish jarayonini tezlashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Misol qilib oladigan bo'lsak, O'zbekistonda birgina ta'lim tizimining o'zidayoq pandemiya sabab 2020 yildan raqamlashtirish sari katta sakrash kuzatiladi.

Koronavirus pandemiyasi jahonning 190 dan ortiq davlatini qamrab olgan edi. O'zbekistonda ham 2020 yilning mart oyi o'rtalariga kelib koronavirus pandemiyasidan zararlanish holati ko'zga tashlana boshladi. Koronavirus pandemiyasi boshlanguniga qadar jahon iqtisodiyotida ijobiy siljishlar kuzatilayotgan, oxirgi yillarda o'sish surati o'rtacha 3 foizni tashkil qilayotgandi. Xitoy, O'zbekiston, Tojikiston, Armaniston kabi mamlakatlarda bu borada, ayniqsa yuqori natijalar qayd etilayotgandi. Pandemiyaning boshlanishi jahonda iqtisodiy inqirozni keltirib chiqardi. Bu esa ko'pgina davlatlar oldiga ushbu vaziyatda «yashab



ketish»dek murakkab vazifasi qo'ydi. Ijtimoiy turmushda raqamlashtirish ya'ni «onlayn xizmat ko'rsatish»ning ahamiyati va dolzarbligi oshdi.

Soha mutaxassislari tomonidan raqamlashtirish – «ma'lum bir soha yoki tizimni axborotlashtirish hamda axborot texnologiyalariga asoslangan yangi ko'rinishga o'tkazish», deb ta'rif berilsada, biz bugun raqamlashtirishni insonlar kundalik turmush tarzini yaxshilash hamda aholi uchun davlat xizmatlarni qulay, sifatli va shaffofligini ta'minlash uchun o'tilishi kerak bo'lgan zaruriy bosqich sifatida qarashimiz mumkin. «...bir paytning o'zida, O'zbekiston ham ushbu umumjahon tendensiyasidan chetda qolayotgani yo'q. Keyingi yillarda iqtisodiyot sohasiga raqamli texnologiyalarni jalb qilishga alohida e'tibor berilmoqda», raqamli iqtisodiyot elektron savdo va servis bilan cheklanmasdan barcha sohalarni qamrab olmoqda. Chunki mamlakat iqtisodiyoti rivoji istaymizmi yo'qmi mustaqil ravishda rivojlana olmaydi, unga mavjud barcha soha va yo'nalishlar ozmi ko'pmi o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Shu sabab bilan ham raqamlashtirish bugungi kunda dolzarb hisoblangan «Yangi O'zbekiston strategiyasi»ning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab olindi. Mazkur vazifalarni bajarish maqsadida mamlakatimizda barcha sohalarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora tadbirlar ishlab chiqildi va bu asosda 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlandi. Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida elektron hukumatni yanada rivojlantirish va bunda mamlakat miqyosida sifatli va talab yuqori bo'lgan elektron davlat xizmatlarini yanada kengaytirish, bosqichma-bosqich barcha davlat xizmatlarini raqamli shaklga o'tkazish, shu jumladan ko'rsatilayotgan avtomatlashtirilgan xizmatlar ulushini 2030 yilga qadar 90 foizga yetkazilishi belgilandi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ayniqsa pandemiya davri ko'p sohalar kabi ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimida ham raqamlashtirishga o'tish zaruratini kuchaytirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-5040-son qarori asosida Markazning ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-ijtimoiy mavzulardagi dolzarb maqolalar, jamoatchilik vakillarining ilg'or fikrlari, shuningdek, mafkuraviy jarayonlar tahlili, sohaga oid yangiliklarni to'plash, tayyorlash va tarqatish maqsadida «oyina.uz» elektron portali faoliyatini yo'lga



qo'yish va uning tuzilmasida Raqamli targ'ibot bo'limining tashkil etilishi ham fikrimizning yaqqol dalilidir.

Bugungi kunda odamlar orasida ijtimoiy tarmoqlar orqali ma'lumotlar olish, ijtimoiy-siyosiy voqealarga o'z munosabatlarini bildirish, onlayn guruhlar tuzish va shu kabi internet bilan bog'liq faoliyatlar ommalashib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra 2006 yil dunyo aholisi 6,5 mlrd. atrofida bo'lgan, undan internet foydalanuvchilari 18%ni, 2013 yil aholi soni 7 mlrd.dan ortiq bo'lganda internet foydalanuvchilari 39% ni, 2019 yil dunyo aholisining 50% internetning faol foydalanuvchilari bo'lgan. 2021 yilda 7,83 mlrd. aholi sonidan 59,5% internet foydalanuvchilari, 53,6% ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari, 66,6% aholi mobil aloqalardan foydalanuvchisi sifatida hisobga olingan.

Websiterating.com saytining habar berishicha 2024 yil 5 yanvar holatiga ko'ra yer yuzida internetdan foydalanuvchilar soni 5.30 milliard, ya'ni barcha aholining 66%ini tashkil etadi. Bir odam o'rtacha hisoblaganda bir kunda 7 soat internetdan foydalanadi. 2024 yilda raqamli (onlayn) reklama – PR hamda ijtimoiy targ'ibotlarga ga 442,6 milliard dollar ajratilishi ko'zda tutilmoqda.

Bu esa raqamlashtirish kundalik hayotimizga avtomat tarzda tobora singib ketayotganining yaqqol dalilidir. Internet foydalanuvchilari yildan yilga ko'payib borayotgan ekan, internet maydoni barcha davlatlarning muhim qurolidan biriga aylanib boraveradi.

Darhaqiqat xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda oldimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofdan yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamalakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi kurash olib borish vazifasi turibdi. Targ'ibot ishlarini bugungi kun talablari darajasida tashkil etishda ushbu sohaga ilmiy yondoshish va shu asosda ishni tashkil qilinishi esa oldimizda turgan, yoki kelajakda xavf solishi mumkin bo'lgan muammolarni oqibatlari bilan emas sabablari bilan kurashish imkonini beradi. Bular ishimizning natijadorligini, natijaning esa davomiyligini oshiradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020 yilga «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» deb salobatli nom berishni taklif qilganida, o'sha vaqtda qandaydir bir kuch, mamlakat va millatni kutayotgan yana bir katta sinov borligini, undan munosib o'tishda esa mana shunday yo'l lozimligini ko'rsatgandek



tuyuladi. Buni tushunib yetish uchun uzoqqa borish shart emas: koronavirus balosi, bir tomondan, dunyoning ajralmas qismi sifatida O'zbekistonda ham ilmu fan va ma'rifatga bo'lgan ehtiyoj qanchalar yuksak ekani, bunga hali juda ham ko'p e'tibor berish va salmoqli investitsiya kiritish lozimligini ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu balo hammani o'z uyiga qamab, bundan keyin raqamli texnologiyalarsiz yashash mumkin emasligini isbotladi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev koronavirus pandemiyasi sababli xalqqa, shu jumladan yoshlarimizga qilgan murojaatida quyidagi so'zlar kelitiriladi: «Aziz farzandlarim uyda vaqtingizni bekor o'tkazmang, onlayn darslarini qunt bilan o'zlashtirig, kitob o'qing, bilimingizni oshiring, badan-tarbiya va jismoniy mashqlarni bir kun ham qoldirmang» degan da'vati yoshlarni jahon andozalari asosida bilim olishga undadi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini uzluksiz davom ettirish maqsadida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020 yil 27 martdagi «Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni joriy etish to'g'risida»gi buyrug'i qabul qilindi. Buyruq ijrosini ta'minlash maqsadida talabalar bilim olish faoliyatini uzluksizligini ta'minlash uchun virtual muhitda talabalar va o'qituvchi auditoriyasi tashkil etildi. Bunday virtual auditoriyada o'qituvchi talabalarga dars mazmunini yetkazish, tegishli topshiriqlarni berish, o'zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi, ya'ni to'laqonli o'quv jarayoniga yaqinlashtirilgan faoliyat tashkil etildi. Buning uchun, masofaviy ta'limni tashkil etishda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar o'quv rejalari asosida joriy semestrda fanlarning dasturlari bo'yicha o'quv resurslarini yaratishga e'tibor qaratildi. Shu sababdan bugungi kunda oliy ta'limda o'qitilayotgan 7 395 ta fandan 5 600 tasidan ta'lim resurslari yaratildi va har bir oliy ta'lim muassasasining masofaviy o'qitish platformalariga joylashtirildi.

Barcha oliy ta'lim muassasalarining masofaviy o'qitish platformalari vazirlikning <https://dist.edu.uz/> yagona portaliga birlashtirildi. Bu esa bir oliy ta'lim muassasasining talabasiga boshqa oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisining o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Ya'ni talaba o'ziga kerakli materiallarni istalgan manbadan olish imkoniyatiga ega.

Hamma uchun ochiq ta'lim resurslarini yaratish maqsadida TAS-IX tarmog'ida <https://tube.edu.uz> videopartali ishga tushirildi. Hozirgi kunda videopartalga mingdan ortiq ortiq videodarslar joylashtirildi.



Talabalarning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish maqsadida vazirlik portali tarkibida audiokitoblar elektron kutubxonasi <https://audiobook.edu.uz> tashkil etildi. Kutubxonada zamonaviy va klassik adabiyotlar joylashtirilgan va ularning soni ko'paytirilib borilmoqda.

Respublika maxsus komissiyasining topshirig'iga ko'ra (Koronavirus pandemiyasi vaqtida), Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda umumta'lim maktab o'quvchilari uchun «Onlayn maktab» rukni ostida videodarslarni tasvirga olib, namoyish qilindi.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, jamiyat va davlat hayotida raqamli texnologiyalar kirib kelishi yanada mukammal jamiyatni shakllantirish va strategik tarmoqlarda sifatli islohotlarni amalga oshirish imkonini bermoqda. Bu mamlakat rahbariyatining mazkur tarmoqlarni yanada takomillashtirish borasidagi faoliyatni jadallashtirishga undamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent- 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29 dekabr 2020 yil. Kirish tartibi: <https://president.uz/uz/lists/view/4057> (Murojaat sanasi 19.01.2021 sanasi)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi «O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF-158-son Farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagi O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyoti rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-3832-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yilning 5 oktabrdagi «Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari» to'g'risidagi PF-6079 son farmoni. – <https://lex.uz/pdfs/5030957>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risi»gi PQ-4796-sonli qarori.

7. Abazalieva M.M , Botasheva A.K. Blogging as a Modern Form of Political Communication // Sovremennaya nauka i innovatsii. 2021. № 3 (35) S. 201-207.
8. Aghayan N. Issues of national security in the structure of political communication // Vestnik Rossiysko-Armyanskogo (Slavyanskogo) universiteta: gumanitarnye i obshchestvennye nauki. 2021. № 1 (137). S. 58-72
9. Baran, S.J. (2002). Introduction to Mass Communication. Boston, New York: McGraw Hill, 535 p.
10. G. Teshayeva // Формирование в новом Узбекистане цифрового общества // Oriental journal of technology and engineering 2024.
<https://supportscience.uz/index.php/ojte/article/view/1021>
11. G.M. Teshayeva // Man in the digital society // European international journal of multidisciplinary research and management studies.
<https://eipublication.com/index.php/eijmrms/article/view/1801>

